

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

MAVZUSIDAGI XALQARO II MIY-AMALIY ANJUMAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mas‘ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay‘ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev
PhD. dots. M.A.Qurbonov
f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G‘.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov
kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova

Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

Ko'rib turganingizdek, biz zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida alliteratsiya haqida ba'zi foydali misollar bilan gaplashdik. [4;35]

Ingliz she'riyatida ham alliteratsiya ko'p uchraydi. Uilyam Shekspiyning ijodida ham alliteratsiyadan ko'p foydalanilgan, masalan "Romeo va Juyetta" asarida hamda "sonnet 5" asrlarida "B" va "S" harflari alliteratsiga uchraydi:

*"Beauty o'er-snowed and bareness every where:
Then were not summer's distillation left,
A liquid prisoner pent in walls of glass,
Beauty's effect with beauty were bereft..*

Aynan bolalar uchun mo'ljallangan she'rlarda ham alliteratsiya mavjud. John Harris tomonidan yozilgan Peter Piper bunga yaqqol misol bo'la oladi:

*"Peter Piper picked a peck of pickled peppers,
A peck of pickled peppers Peter Piper picked;
If Peter Piper picked a peck of pickled peppers,
Where 's the peck of pickled peppers Peter Piper picked?"*

Xulosa

Alliteratsiya - bu adabiyotda, she'riyatda va og'zaki nutqda qo'llaniladigan uslubiy adabiy vosita bo'lib, unda bir xil birinchi undosh tovush (yoki harf) bo'lgan ko'p sonli so'zlar tez-tez va bir-biriga yaqin bo'ladi. Shuning uchun, alliteratsiyani tinglash, jumla yoki she'r satrida qayta-qayta ishlatiladigan bir xil harfni oddiygina qidirishdan ko'ra muvaffaqiyatliroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adventures in English Literature. – New York.: Copywrite, the Trick Collection.-1985-1990.p990
2. Jin X. Universalization in modern English and American poetry. ProQuest diss., 1993.
3. Ondar N. Parniye slova v tuvinskom yazike. Moskva, 2004.
4. Qayumova F. X. Ingliz va o'zbek tilida alliteratsiyani qiyosiy o'rganish, 2023.

INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TILLARIDA PLEONAZM VA TAVTOLOGIYA TUSHUNCHALARI, TURLARI VA TARJIMA MASALALARI

Abdusamatova Ominabonu G'ulomjon qizi

Andijon Davlat universiteti

I-bosqich tayanch doktoranti

ominahonn@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola nutqiy ortiqchalikning turlari hisoblangan pleonazm va tautologiyalarning ingliz, rus va o'zbek tillaridagi tadqiqiga bag'ishlanadi. Muallif izlanishi davomida pleonazm va tautologiya atamalariga toxtalib o'tadi. Shuningdek ularning turlari va tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ham tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: nutqiy ortiqchalik, pleonazm, tautologiya, semantik pleonazm, affiksial pleonazm, tarjima.

Abstract: This article is dedicated to the analysis of types of redundancy: pleonasm and tautology in English, Russian and Uzbek. The author defines the terms of pleonasm and tautology. Moreover, she analyses their types and the problems of translation.

Key words: redundancy, pleonasm, tautology, semantic pleonasm, affixal pleonasm, translation.

Nutqimizda ko'pincha ortiqchalikka yo'l qoyamiz. Bu tabiiy hol. Bu kabi ortiqchalikning asosan ikki hil turi mavjud bo'lib, bular pleonazm va tautologiya deb, ataladi. Ushbu atamalarga turli tillarda turli olimlar tomonidan ta'riflar berilgan, dastlab ularni tahlil qilib olamiz.

Pleonazm (yun. pleonasmus — ortiqchalik) — bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining (til birliklarining) semantik jihatdan takror holda qo'llanishi. P. tejamlilik prinsipiga zid hodisadir. Biroq shunga qaramay u uslubiy vazifa bajarishga asoslanadi. Pleonastik qo'llanish uchun shakliy takror asosiy mezon bo'la olmaydi, balki mavjud ma'noning qayta takrorlanishi asosdir [3].

Nutqda takrorlanayotgan birliklarning turi (qo'shimcha, so'z, gap)ga qarab, pleonazmni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Leksik pleonazmlar;
2. Semantik pleonazmlar;
3. Affiksial pleonazmlar;
4. Leksik-affiksial pleonazmlar.
5. Sintaktik pleonazmlar [1].

R. Qo'ng'urovning fikricha fnetik pleonazmlar ham mavjud. Ushbu fikr olimlar tomonidan turli mulohazalarga sabab bo'lgan. Sababi ushbu nazariya pleonazmning chegarasini aniqlashda qator qiyinchiliklarga sabab bo'ladi [2].

Agar sinonim yoki semantik jihatdan yaqin bo'lgan so'zlar leksik birlik sifatida birikib, o'zaro aniqlovchi — aniqlanmish munosabatida bo'lsa, ular leksik pleonazmlar hisoblanadi: *ko'ppak it, tuz namak, interval oralig'i, mayda mikroblar kabi*.

O'zbek tilida semantik pleonazmlar ham keng tarqalgan: *oyoq bilan tepmoq, ko'z bilan ko'rmoq, qari chol, maxfiy sir kabi (tepish oyoq orqali, ko'rish ko'z orqali sodir bo'lishi; chol bo'lgach, uning qariligi, sir bo'lgandan keyin maxfiyligi aniq narsa)*. Mazkur misollardagi semantik ortiqchaliklar nutqda ta'sirchanlikni, ta'kidni oshirish maqsadlariga xizmat qiladi [1].

Affiksial pleonazmlar qo'shimchalarning takrorlanishi natijasida vujudga keladi: *kuylashaylikkuyaylik, ko'kimtirroq (-imtir va roq), singlisi (-i va -si) va boshqa leksik-affiksial pleonazmlarda o'zak-negiz anglatgan ma'no qo'shimcha orqali yana takror ifodalanadi. Mas, to'qayzor, o'rmonzor so'zlarining o'zagida o'rin ma'nosi ham, jamlik ma'nosi ham anglashiladi. Kulolchi, omborxon, yotoqxon so'zlarida ham pleonastik qo'llanish kuzatiladi. Bunday hollarda pleonastik qo'llanishga hojat yo'q. Til doimo o'ta aniqlikka intilar ekan, unda ortiqchalikning yuzaga kelishi tabiiydir. Ortiqchaliklar esa ko'pincha uslubiy vazifa uchun xizmat qiladi. Tautologiya ham pleonazmning bir ko'rinishi hisoblanadi [1].*

Tavtologiya- (Yunoncha tautologia — aynan o'sha so'z) — 1) bir fikrni, mazmuni boshqa so'z yoki so'zlar (so'z birikmasi, ran) bilan takroran ortiqcha ishlatish, so'zni ortiqcha takrorlash. Masalan, chin haqiqat, gap gapirmoq, butunlay va to'laligicha kabi. Tavtologiya tushunchasi pleonazm tushunchasi bilan bog'liq; ba'zan Tavtologiyani pleonazmning bir ko'rinishi deb hisoblashadi. Aslida ular bir xil hodisa emas. Tavtologiya, pleonazmdan farqli o'laroq, nutq hodisasi hisoblanib, til tizimi va me'yori doirasiga kirmaydi. U, odatda, so'zlovchining mantiqan va til jihatdan yetarli darajada savodxon emasligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham frantsuz tilshunosi Sh. Balli uni nuqsonli pleonazm deb atagan edi. Uslubiy g'alizlik natijasi bo'lmay, muayyan uslubiy vosita sifatida qo'llanganda, Tavtologiya nutqning emosional ta'sirchanligini oshiradi, lekin ilmiy va rasmiy uslublarda Tavtologiyaga yo'l qo'yib bo'lmaydi; 2) mantiqda o'ziga xos hukm, unda ta'riflanadigan tushuncha aynan o'zi vositasida ta'riflanadi, ya'ni ta'rifning aniqlovchi qismi aniqlanuvchi qismida ifoda etilgan ma'noni takrorlaydi. Natijada mazmun bir xil bo'lib qolaveradiyu, uni ifodalagan so'zlar esa turlicha bo'ladi. Tushunchalarni to'g'ri ta'riflash — mantiqiy talablardan biri. Ta'riflanayotgan tushuncha o'zi bilan emas, boshqa tushunchalar bilan ifodalanishi va tushunchaning mohiyati ochib berilishi lozim. «Odam insoniy xislatlarga ega bo'lishi lozim», «tobi qochgan odam kasaldir» kabi ta'riflarda qaytariq mavjud. Shunday qaytariq mantiqda Tavtologiya deb ataladi [3].

Ushbu stilistik hodisalar qanday sabablarga ko'ra sodir bo'lishini birgalikda tahlil qilamiz:

1. Chet tilidan kirib kelgan so'zlarning tarjimasini aniq bilmagan holda yoniga boshqa bir so'zni qo'shish natijasida. Masalan,
2. Sozlarning to'liq ma'no- mazmunini bilmaslik natijasida. Masalan, ingliz tilidagi "repeat again" birikmasida pleonazm yuz bermoqda. Repeat- say something, degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilida "qayta qaytarmoq", deb tarjima qilinadi va g'alizlik yaqqol ko'zga tashlanadi.
3. Pleonastik iboralar tilimizda qotib, "fossilization" ga aylanib ulgurgan. Shu boisdan ham, beixtiyor nutqimizda bunday ortiqchalikka yo'l qo'yamiz.

Pleonastik iboralarning ingliz, rus va o'zbek tillarida tarjima jarayonida ba'zan mujmalliklar yuzaga keladi. Tarjima jarayonida turli hil usullardan foydalanishga to'g'ri keladi.

1. So'zma- so'z tarjima: unexpected surprise- kutilmagan sovg'a- неожиданный сюрприз.
2. Qo'shimchalar qo'shish orqali: future plan- kelajak uchun reja- планы на будущее.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu tillardagi pleonazm va tavtologiya turlari o'zaro mutanosibdir, biroq tarjima jarayonida ba'zan g'alizliklarga duch kelishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Mahkamov N. Adabiy norma va pleonazm.- Toshkent: Fan, 1988.- 96b.

2. Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik hususiyatlari.- Toshkent, 1980.
3. <https://wikipedia.com>

NEMIS NIKOH TO'YLARIDAGI KELIN VA KUYOV VA'DALARINING LINGVISTIK TAHLILI

Sidikjon Muminov Mirsobirovich,
Farg'ona davlat universiteti professori, f.f.d.
Qobil Kaxarov Shuhrat o'g'li,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti, f.f.d., (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola nemis nikoh to'ylaridagi kelin va kuyov va'dalarining lingvistik tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida bu va'dalarning strukturalari, semantik mazmuni o'rganilgan. Maqolada kelin va kuyovning bir-birlariga bo'lgan chuqur muhabbati, sadoqat va hurmatlarini ifoda etuvchi lug'aviy birliklar tahlil qilingan.

Аннотация: Данная статья посвящена лингвистическому анализу клятв жениха и невесты на немецких свадебных церемониях. В ходе исследования изучены структуры и семантическое содержание этих клятв. В статье проанализированы лексические единицы, выражающие глубокую любовь, преданность и уважение жениха и невесты друг к другу.

Annotation: This article is dedicated to the linguistic analysis of the vows of brides and grooms in German weddings. During the research, the structures and semantic content of these vows were studied. The article analyzes the lexical units that express the deep love, loyalty, and respect between the bride and groom.

Kalit so'zlar: kelin, kuyov, do'st, nikoh vadalari, marosim, oilaviy qadriyatlar, muhabbat va sadoqat, o'zaro ishonch.

Ключевые слова: невеста, жених, друг, свадебные клятвы, церемония, семейные ценности, любовь и преданность, взаимное доверие.

Keywords: bride, groom, friend, wedding vows, ceremony, family values, love and loyalty, mutual trust.

Ma'lumki, butun dunyo xalqlarida, ayniqsa, islom dinidan tashqari barcha xalqlarda, to'y marosimidagi eng hayajonli lahzalar kelin va kuyovning bir-birlariga beradigan va'dalari muhim ahamiyatga ega va to'y marosimiga o'ziga xos tus bag'ishlaydi. To'y va'dalaridagi asosiy g'oya kelin-kuyovning bir-birlariga sog'liq va kasallikda, toki o'lim ularni ajratmaguncha, Alloh oldida abadiy sodiqlikni to'yga tashrif buyurganlar guvohligida va'da qilishidan iboratdir [3, 279]

Nemis xalqida to'y va'dalari kelin va kuyov tomonidan maxsus tayyorlanishi yoki shu vaqtgacha qo'llanilib kelingan klassik nikoh vadalari/qasamlari (Eheversprechen)dan foydalanishlari mumkin. O'zlari tomonidan tayyorlangan qasamlarda ular sevgilari haqida biror narsa aytishlari va o'zaro munosabatlariga doir kichik latifalar, birgalikdagi hayotlari va kelajak bilan bog'liq orzularini bayon etishlari ham mumkin [4, 75]

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

	USULLARI Mirzatolipova Gulzira Ulug‘bek qizi	
103.	GENDERNI IFODALOVCHI NOVERBAL VOSITALARNI TUSHUNIB YETISH MASALASI Kurbanov Muzaffar Abdumutalibovich	325
104.	WORD FORMATION OF MEDICAL TERMS IN ENGLISH LANGUAGE Maxmudova Iroda	330
105.	THE ENGLISH NATIONAL MENTALITY AND ITS EXPRESSION IN THE LANGUAGE Solijonov Boburjon	332
106.	МОНОТАКСЕМНЫЕ И ПОЛИТАКСЕМНЫЕ ПРОВЕРБЕМЫ С НЕГАТИВНЫМ КОМПОНЕНТОМ В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ Назарова Д.Ш.	335
107.	PHONETIC PECULIARITIES OF STYLE Sobirjon Solijonov	340
108.	“Қиёс” концепценти ва унга семантик уйкаш стилистик воситалар тахлили. Ашуров Мўмин Умаржонович	343
109.	ADABIYOTDA SHAKL VA MAZMUN N.M.Qodirova X.Xojiboboyeva	347
110.	IJODIY MAHORATLARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BAKALAVRANT VAQTINI YUQORI DARAJAGA OSHIRISH Abdullayeva Lola Sadullayevna	350
111.	NUTQIY AKTNING ASOSIY KATEGORIYALARI. Qurbonova Barnoxon Baxodir qizi	353
112.	ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВРЕМЕННОЙ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ Тешабаев Аллаёржон Ганиевич	356
3-SHO‘BA. QIYOSIY VA CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI		
113.	“SEVGI” KONSEPTI INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI BADIY VOSITALAR TALQINIDA To‘xtasinova Shoxsanam Abdujalil qizi	360
114.	INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDAGI SOMATISM KOMONENTLI FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING GENEZISI Niyozova Mashhura Usmonovna	362
115.	INGLIZ PAREMIYALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Dadaboyeva Malikaxon Farxodjon qizi	365
116.	O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “GO‘ZALLIK” KONSEPTINING IFODALANISHI Jabborova Dilafruz Sharofovna	368
117.	INGLIZ ADABIYOTIDA ALLITERATSIYADAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI G‘ofurova Gullola Axmadullayevna	370
118.	INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA PLEONAZM VA TAVTOLOGIYA TUSHUNCHALARI, TURLARI VA TARJIMA MASALALARI Abdusamatova Ominabonu G‘ulomjon qizi	373